

Tijorat bankining nomi, rasmiy veb-sayti, telefon raqamlari	ATB “Universal bank” Sayt: <a href="http://www.universalbank.uz">www.universalbank.uz</a> Email: <a href="mailto:info@universalbank.uz">info@universalbank.uz</a> <a href="tel:+99871-200-11-10">Tel:+99871-200-11-10</a> Tel: 1355
---	--

### 1-bo‘lim. Omonatning asosiy shartlari

1. Omonat nomi	“Qulay daromad” muddatli omonati
2. Omonatning valyutasi	Milliy valyutada
3. Omonat bo‘yicha yillik foiz stavkasi (agar omonat bo‘yicha yillik foiz stavkasi differensiallashgan yoki omonatni rasmiylashtirish usuliga bog‘liq bo‘lsa, har biri alohida ko‘rsatiladi)	Bank ofislari orqali yillik 20(yigirma) foiz stavkasida
4. Omonat bo‘yicha hisoblangan foizlarni kapitalizatsiyasi mavjudligi (hisoblangan foizni asosiy mablag‘ga qo‘shib qayta foiz hisoblash)	Mavjud emas
5. Omonatning muddati	12 oy
6. Omonatga qo‘yiladigan mablag‘ning eng kam miqdori (agar mavjud bo‘lsa)	100 000 (Bir yuz ming) so‘m
7. Omonat bo‘yicha foizlarni to‘lash davriyili	Hisoblangan foizlar har oyda bir marotaba yoki mojoz talabi bilan bir necha marotaba to‘lab beriladi.
8. Omonatni rasmiylashtirish usuli (onlayn yoki bankka tashrif buyurish orqali)	Bank ofislariga tashrif buyurish orqali
9. Qo‘sishimcha mablag‘ kiritish imkoniyati	Mavjud (Omonat shartnomasi muddati davomida)
10. Avtouzaytirish (omonat muddati tugaganda omonat muddatini bank tomonidan bir tomonlama uzaytirish)	Mavjud emas
11. Boshqa shartlar	

### 2-bo‘lim. Boshqa muhim shartlar

1. Omonatga qo‘yilgan pul mablag‘larini omonat muddati tugagunga qadar qisman yechib olish imkoniyatining mavjudligi	Mavjud emas
2. Omonat shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish tartibi	Omonatchi o‘z omonatini omonat qo‘yilgan kundan boshlab 12 oy ichida muddatidan oldin to‘liq talab qilib olgan taqdirda, omonatning haqiqatda saqlangan muddatiga hisoblab to‘lab berilgan foizlar summasi yillik 14 foiz hisobida qayta hisob-kitob qilib beriladi. Foizlarning ortiqcha qismi mavjud bo‘lsa, omonatning asosiy summasidan chegirib qolinadi.

### Omonat qo‘yishga rozi bo‘lishdan oldin diqqat bilan o‘rganib chiqing!

Siz omonatning shartlari, omonat bo‘yicha foiz daromadlari va hisob-kitoblar tartibi to‘g‘risida, shuningdek huquqlaringiz va majburiyatlariningiz, Sizga tushunarsiz bo‘lgan boshqa masalalar yuzasidan bankdan to‘liq va batafsil ma’lumot olishga haqlisiz.

Agar Sizda shikoyatlar mavjud bo‘lsa, u holda Siz murojaatingizni +99871 200-11-10 raqamli telefonga yoki bankning Qo‘qon shahar Shoxruhobod ko‘chasi manziliga yoki [info@universalbank.uz](mailto:info@universalbank.uz) elektron manziliga jo‘natishingiz mumkin.

AXBOROT VARAQASINING TO‘G‘RILIGI VA HAQIQIYLIGI  
TASDIQLANADI.



## “Qulay daromad” muddatli omonati shartnomasi № \_\_\_\_

“\_\_\_\_” \_\_\_\_\_. \_\_\_\_\_.

shahri (tumani)

Bundan buyon shartnoma matnida “Bank” deb yuritiluvchi ATB “Universal bank” nomidan Nizom hamda Ishonchnomalar asosida ish yurituvchi Bankning boshlig‘i/boshqaruvchisi \_\_\_\_\_ bir tomonidan, bundan buyon matnda “Omonatchi” deb yuritiluvchi \_\_\_\_\_ yilda \_\_\_\_\_ tomonidan berilgan \_\_\_\_\_ seriyasi \_\_\_\_\_ raqamli pasportga ega bo‘lgan fuqaro \_\_\_\_\_ ikkinchi tomonidan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

### 1. Shartnoma predmeti.

1.1. Omonatchidan bankka omonat mablag‘ini milliy valyutada naqd shaklda, bank plastik kartalaridagi hamda ATB “Universal bank” tizimida omonat hisobvaraqlaridagi mablag‘larini qayta rasmiylashtirish orqali qabul qilinadi. Omonatning eng kam miqdori **100 000 (bir yuz ming) so‘m etib belgilanadi**.

1.2. Bank Omonatchiga omonat mablag‘ini va unga hisoblangan foizlarini mazkur shartnoma shartlari asosida qaytaradi.

1.3. Omonat turi **muddatli**

1.4. Omonatning nomi **“Qulay daromad”**

1.5. Omonat summasi \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_ ) (so‘m).

1.6. Omonat muddati: **12 oy**

1.7. Omonat bo‘yicha foiz stavkasi: **20 %**

1.8. Omonatni qaytarish muddati \_\_\_\_\_

1.9. Omonat bo‘yicha hisoblangan foizlarni to‘lash muddati omonatchining talabi bo‘yicha **har oyda bir marotaba yoki bir necha marotaba**.

1.10. Omonatga hisoblangan foizlar asosiy summasiga **kapitalizatsiya qilinmaydi**.

1.11. Omonatchi bilan tuzilgan “Bank omonati shartnomasi” rasmiylashtirilgan sanadan boshlab shartnoma amalda bo‘lgan davr mobaynida dastlabki qo‘yilgan omonat summasiga qo‘srimcha mablag‘ kiritilishi mumkin. Qo‘srimcha mablag‘ning eng kam miqdori **100 000 (bir yuz ming) so‘m**.

1.12. Omonatchilardan qabul qilingan mablag‘lar kirim orderi yoki omonatchining talabiga ko‘ra berilgan № UB \_\_\_\_\_ raqamli omonat daftarchasi bilan tasdiqlanadi.

### 2.Tomonlarning huquqlari va majburiyatları

#### 2.1. Bankning majburiyatları:

2.1.1. Omonatchini omonat turiga oid “Tartib” talablari bilan tanishtirish;

2.1.2. Omonat mablag‘ini belgilangan tartibda qabul qilish va omonatchining hisobvarag‘iga kiritish;

2.1.3. Omonatchining shaxsi, omonat hisobvarag‘i va undagi operatsiyalar haqidagi ma’lumotlarni sir saqlanishini ta’minalash, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno;

2.1.4. Omonat qabul qilingandan keyingi kundan boshlab har kuni shartnomaning 1.7 bandiga muvofiq foiz hisoblash hamda shartnomaning 1.9 bandida belgilangan muddatlarda to‘lab borish;

2.1.5. Omonatchining omonat mablag‘ini to‘liq omonat qo‘yilgan shaklda qaytarish.

#### 2.2. Bankning huquqlari:

2.2.1. Omonatchining omonat hisobvarag‘idan boshqa hisobvaraqlarga o‘tkazilgan naqd pulsiz to‘lovlar uchun Bank tomonidan belgilangan “Ta’rif”lar asosida xizmat haqi olish;

2.2.2. Qonunchilikda belgilangan asoslar mavjud bo‘lgan hollarda, omonat hisobvaraqlari va omonatga oid ma’lumotnomalarni uchinchi shaxslarga, surishtiruv-tergov, Sud va boshqa organlarga ma’lumotlar berish.

2.2.3. Bank o‘z ixtiyoriga bog‘liq bo‘limgan ommaviy tartibsizliklar, mitinglar, ko‘cha xarakatlari, bosqinchilik xolatida va to‘lovga qobiliyatsizlik davrida omonat mablag‘ini muddatidan oldin qaytarish bo‘yicha javobgar hisoblanmaydi.

#### 2.3. Omonatchining majburiyatları:

2.3.1. Omonat mablag‘ini o‘z vaqtida omonat hisobvarag‘iga o‘tkazish.

2.3.2. Bank tomonidan talab qilingan hujjatlarni taqdim etish.

2.3.3. Omonat hisobvarag‘idan o‘tkazilgan mablag‘lar uchun Bank tomonidan belgilangan ta’rif bo‘yicha haq to‘lash.

2.3.4. SMS info yoki boshqa dasturdan foydalanganlik uchun Bankda belgilangan ta’rif bo‘yicha haq to‘lash.

## **2.4. Omonatchining huquqlari:**

- 2.4.1.Omonatga qo'yilgan mablag'larni o'z ixtiyoriga ko'ra shaxsan o'zi yoki qonuniy vakili orqali tasarruf etish;
- 2.4.2.Shartnomada belgilangan stavkada foiz to'lanishini talab qilish;
- 2.4.3.Omonat muddati tugagandan so'ng omonatni yopish va unga hisoblangan foizlar bilan to'liq olish yoki Bankda mavjud omonat turlaridan biriga qayta rasmiylashtirish.
- 2.4.4.SMS info dasturidan foydalangan holda yoki shaxsiy kabinetiga orqali o'zining omonat mablag'i xaqida ma'lumotlar olish.

## **3. Omonat uchun foizlarni hisoblash va to'lash.**

3.1. Omonatga foizlar har kuni yillik bazaviy 365 kundan kelib chiqqan holda hisoblab yoziladi, foizlar omonat mablag'i bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, to u Omonatchiga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko'ra omonatchining hisobvarag'idan o'chirilgan kundan oldingi kungacha hisoblanadi.

3.2.Omonatchining hisobvarag'i xatlanganligi oqibatida bank ushbu hisobvaraqdagi pul mablag'laridan foydalana olmagan davr uchun foizlar hisoblanmaydi.

3.3. Omonat muddati davomida qisman qaytarib olinishi mumkin emas.

Agar omonatchi o'z omonatini "Bank omonat shartnomasi"da belgilangan muddatdan oldin to'liq olmoqchi bo'lsa, bu haqda bankka yozma murojaat qilishi shart. Bunda shartnomaning amal qilish muddati to'xtatiladi va omonatga hisoblangan foizlar u to'liq saqlangan davr uchun quyidagi tartibda to'lanadi:

Omonatchi o'z omonatini omonat qo'yilgan kundan boshlab 12 oy ichida muddatidan oldin to'liq talab qilib oлган taqdirda omonatning haqiqatda saqlangan muddatiga hisoblab to'lab berilgan foizlar summasi yillik 14 foiz hisobida qayta hisob-kitob qilib beriladi.

Omonatning muddati davomida to'langan foizining ortiqcha qismi mavjud bo'lsa, omonatning asosiy summasidan chegirib qolinadi.

3.4. Omonat shartnomasida qayd etilgan muddat tugashi bilan omonat hisobvarag'i yopilgan hisoblanadi va omonat qoldig'i, unga hisoblangan foizlar omonatchining talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat (20206000) hisobraqamiga o'tkaziladi.

3.5. Muddati tugagandan so'ng olinmagan yoki boshqa omonat turiga qayta rasmiylashtirilmagan omonatlarga foiz hisoblanmaydi.

3.6. Shartnomada ko'rsatilgan foiz stavkasi shartnomaga muddati tugagunga qadar o'zgarmaydi.

## **4. Sanksiyaga qarshi shartlar**

4.1. Tomonlar ushbu shartnomani tuzish vaqtida omonatchi va ularning qonuniy vakillari AQSh (OFAC, FinCen va BIS) va ittifoqchilar tomonidan belgilangan sanksiya va ta'qiqlar (keyingi matnda-sanksiya) ro'yxatiga kiritilmaganligini kafolatlaydi.

4.2. Bank omonatchi va uning operatsiyasi sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo'lganda, operatsiyani o'rganish maqsadida qo'yidagi huquqlarga ega:

- Mijozdan qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilish ;
- Operatsiya miqdorini chegaralash va cheklash( rad etish);

Amalga oshirilayotgan operatsiyalar omonatchining anketasidagi profiliga nomuvofiq bo'lgan hollarda xizmat ko'rsatishni rad etish va shartnomani bir tomonlama bekor qilish.

4.3. Bank omonatchining hisobvaraqlariga kelib tushgan mablag'larni sanksiyalardan holi ekanligini aniqlagunga qadar tranzit hisobvaraqlarida saqlaydi.

4.4. Sanksiyalarni qo'llash tufayli majburiyatlarni bajarish imkonsiz bo'lib qolgan taqdirda, har ikki tomon bir-biriga, shu jumladan Bank omonatchiga shartnomani bekor qilinishidan uch bank ish kuni oldin tegishli yozma xabarnoma yuborish orqali shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga yega.

4.5 Sanksiyalar qo'llanilishi tufayli majburiyatlarni bajarish imkonsiz bo'lib qolsa, bank shartnomasi majburiyatlarini lozim darajada bajarilmaganligi yoki bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

## **5. Shartnomaning amal qilish muddati.**

5.1. Shartnomasi omonat summasi bankka kelib tushgan kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishida bir tomonlama bosh tortilishiga yo'l qo'yilmaydi.

5.2. Shartnomasi tomonlarning o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar kuchda bo'ladi.

## **6. Nizolarni hal qilish tartibi.**

6.1. Ushbu shartnomasi yuzasidan tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan nizolar o'zaro muzokaralar orqali hal etiladi, muzokara yo'li bilan hal etilmagan nizolar qonunchilikka muvofiq sud organlari orqali hal etiladi.

## **7. Fors-major holatlari.**

7.1. Tomonlar o‘zlariga bog‘liq bo‘lmagan holda oldindan ko‘rib yoki bilib bo‘lmaydigan voqealarni qo‘shish uchun (zilzila, urush, epidemiya, pandemiya, portlash, yong‘in, suv toshqini, elektron to‘lov tizimi ishdan chiqishi) natijasida o‘z majburiyatlarini to‘la yoki qisman bajara olmasalar javobgar bo‘lmaydilar.

7.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtida taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnomalarni bo‘yicha o‘zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo‘ladilar.

7.3. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi haqidagi tomonlarda mavjud bo‘lgan xabarnomalar ikkinchi tomonga barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

## **8. Boshqa shartlar.**

8.1. Shartoma shartlari o‘zgargan taqdirda, tomonlar o‘rtasida shartnomaga qo‘sishimcha kelishuvlar tuziladi.

8.2. Shartnomada ko‘zda tutilmagan holatlar va shartlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunlariga muvofiq tartibga solinadi.

8.3. Omonat O‘zbekiston Respublikasining “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq kafolatlanadi.

8.4. Ushbu shartnomada (ikki) nusxada tuzilgan bo‘lib, har ikkala nusxa bir xil yuridik kuchga ega.

Shartnomaning bir nushasi Bank bo‘linmasida, ikkinchi nusxasi Omonatchida saqlanadi.

### **Tomonlarning rekvizitlari:**

#### **“Bank”**

Manzil: \_\_\_\_\_

Bank rekvizitlari MFO: \_\_\_\_\_

STIR: 203556638

Telefon: \_\_\_\_\_

Boshqaruvchi: \_\_\_\_\_

(F.I.Sh. imzo)

Bosh hisobchi \_\_\_\_\_

(F.I.Sh. imzo)

Yurist \_\_\_\_\_

(F.I.Sh. imzo)

M.O‘.

#### **“Omonatchi”**

F.I.Sh: \_\_\_\_\_

Tug‘ilgan sanasi: \_\_\_\_\_

Tel: \_\_\_\_\_

Yashash manzili: (ro‘yxat bo‘yicha va haqiqatda)

Pasport: seriyasi \_\_\_\_\_ raqami \_\_\_\_\_

berilgan sanasi: \_\_\_\_\_

Kim: \_\_\_\_\_ tomonidan berilgan: \_\_\_\_\_

Omonatchi imzosi: \_\_\_\_\_

#### **Ishonchli vakil**

F.i.sh: \_\_\_\_\_

Pasport ma’lumotlari: \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_ tomonidan

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ yilda berilgan

Ishonchnoma ma’lumotlari: \_\_\_\_\_

Imzo: \_\_\_\_\_